



UDK:378:005(067)

Otabek ALIMARDONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: otabelimardonov111@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor R.Murtazayeva taqrizi asosida

“O'ZBEKISTON XALQ DIPLOMATIYASIDA “LAZGI” FENOMENI: MILLIY MEROSDAN GLOBAL MULOQOT SARI”

Annotasiya

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq diplomatiyasining amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida “Lazgi” raqsi fenomeni tahlil qilinadi. Muallif raqs san'atining tarixiy ildizlari, xalqaro tan olinishi, jumladan, YUNESKO ro'yxatiga kiritilishi va xalqaro sahnalardagi namoyishi orqali bu raqsning xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi o'rnini asoslab beradi. Maqolada, shuningdek, “Lazgi – muhabbat va qalb raqsi” baletining global sahnalarda namoyishi, turli xalqaro festivallardagi ishtiroki hamda AQSHda o'zbek raqs san'atiga bo'lgan qiziqish xalq diplomatiyasining samarali vositasi sifatida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Xalq diplomatiyasi, Lazgi, o'zbek raqsi, madaniy diplomatiya, balet, YUNESKO, xalqaro festival, madaniyatlaaro muloqot, raqs san'ati, estetik ta'sir.

“THE “LAZGI” PHENOMENON IN PUBLIC DIPLOMACY OF UZBEKISTAN: FROM NATIONAL HERITAGE TO GLOBAL DIALOGUE”

Annotation

This article examines the phenomenon of the Uzbek traditional dance “Lazgi” as a practical tool of public diplomacy. It analyzes the historical roots of Lazgi, its recognition by UNESCO as part of the Intangible Cultural Heritage, and its global stage performances. Special focus is given to the ballet “Lazgi – Dance of Love and Soul” and its international reception. The article also highlights the cultural impact of Lazgi in strengthening intercultural dialogue and its role in promoting Uzbekistan's image abroad, particularly through engagement with the Uzbek diaspora and American audiences.

Key words: Public diplomacy, Lazgi, Uzbek dance, cultural diplomacy, ballet, UNESCO, international festival, intercultural communication, dance art, aesthetic influence.

“ФЕНОМЕН “ЛАЗГИ” В НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ УЗБЕКИСТАНА: ОТ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ К ГЛОБАЛЬНОМУ ДИАЛОГУ”

Аннотация

В данной статье рассматривается феномен узбекского национального танца «Лазги» как инструмент народной дипломатии. Автор анализирует исторические корни танца, его включение в список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО, а также международные выступления, включая балет «Лазги – танец любви и души». Особое внимание уделяется его роли в укреплении культурных связей между народами и повышении имиджа Узбекистана на международной арене, в том числе через деятельность узбекской диаспоры и интерес американской публики.

Ключевые слова: Народная дипломатия, Лазги, узбекский танец, культурная дипломатия, балет, ЮНЕСКО, международный фестиваль, межкультурный диалог, искусство танца, эстетическое воздействие

Kirish. Jahon miqyosida diplomatik munosabatlar shakli tobora murakkablashib, an'anaviy siyosiy-diplomatik mexanizmlar bilan bir qatorda xalq diplomatiyasi kabi “yumshoq kuch” vositalarining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, milliy madaniyat, an'analar, san'at va ma'naviy qadriyatlar xalq diplomatiyasining muhim yo'nalishi sifatida jahon maydonida mamlakat imidjini shakllantirish, ijobiy jamoatchilik fikrini yaratish hamda turli xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv va yaqinlashuvni ta'minlashda xizmat qilmoqda. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol siyosat yuritib, xalq diplomatiyasini milliy madaniy meros asosida rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

O'zbekiston Respublikasida xalq diplomatiyasi konsepsiyasi milliy merosni jahon hamjamiyatiga to'laonli tanitish, turli xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv, do'stlik va madaniy muloqotni mustahkamlash maqsadida izchil ravishda rivojlantirilmoqda.

Mazkur jarayonda milliy raqs san'ati, xususan, “Lazgi” fenomeni xalq diplomatiyasining samarali vositasi sifatida yuksak ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xorazm “Lazgi”si nafaqat o'zbek xalqining estetik didi, ruhiy

olami va turmush tarzini ifoda etuvchi yorqin san'at namunasi, balki turli millat vakillarini yaqinlashtiruvchi madaniy muloqot vositasi sifatida ham yuksak qadrlanmoqda.

“Lazgi” fenomeni orqali xalq diplomatiyasida estetik ta'sir, intermadaniyaviy muloqot va madaniy hamkorlik samaradorligining yangi qirralari ochilmoqda.

Ushbu raqsning YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi, xalqaro sahnalardagi namoyishlari, shu jumladan, “Lazgi – muhabbat va qalb raqsi” baleti orqali butun dunyoga taqdim etilishi O'zbekistonning madaniy yuzini xalqaro maydonda mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu raqsning jahon jamoatchiligi tomonidan yuksak qiziqish bilan qarshi olinayotgani esa uning global muloqot vositasiga aylanayotganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, AQSHda o'zbek raqs san'atiga bo'lgan qiziqishning ortishi, amerikalik san'atshunoslar va tadqiqotchilar tomonidan “Lazgi” raqsining ilmiy o'rganilishi, shu jumladan, Laurel Grey kabi yetakchi mutaxassislar faoliyati, ushbu san'at turining xalqaro miqyosda keng tarqalishida muhim o'rin tutayotganini tasdiqlaydi. Bu holat

xalq diplomatiyasi doirasida raqs san'atining ilmiy, madaniy qiymatini yanada kuchaytirmoqda.

Shuning uchun ham "Lazgi" raqsining O'zbekiston xalq diplomatiyasida tutgan o'rini ilmiy jihatdan tahlil etish, uning milliy va global muloqotdagi ta'sirchanligini o'rganish, shu orqali xalqlar o'rtasida madaniy hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini ochib berish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekiston milliy raqs san'ati, xususan, "Lazgi" fenomeni yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar soni yil sayin ortmoqda. Mavzuning tarixiy, estetik va xalq diplomatiyasi nuqtayi nazaridan o'rganilishida bir necha muhim manbalar alohida o'rin tutadi.

Avvalo, O'zbekiston xalq artisti, taniqli san'atshunos R.Karimovning "O'zbek raqslari" asari o'zbek milliy raqs san'ati tarixini, xususan, uning og'zaki va notasviriy an'analarga asoslangan taraqqiyotini ilmiy jihatdan tahlil etishi bilan alohida ahamiyatga ega. U raqs san'atining yozma shaklda qayd etilmaganligi sababli ko'plab xalq raqslari yo'qolib ketganini qayd etadi, bu esa milliy merosni himoya qilish zaruratini asoslab beradi[1].

Musiqqa san'ati va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish o'zbek xalqining barcha davrlari manbalarida qayd etilgan. Masalan, "Boburnoma" asarida Sayid Badr ismli kishining raqsdagi ixtirosi va Hindiston lo'lilari "o'yun"idagi ijro jarayoni haqidagi fikrlar keltirilgan[2].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa: "O'zbekistonda garchi raqs asrlar davomida yashab, rivojlanib kelgan bo'lsada, o'tmishda raqs yozilmagan. Natijada qanchadan-qancha mumtoz va xalq raqslari izsiz yo'qolib ketganligi, etnograf Iraisida Baxta Farg'ona raqs turkumini so'z bilan yozib olganligi ta'kidlanadi[3]. Umuman, ko'pchilik raqsshunos mutaxassislarining tadqiqotlarida "o'zbek raqslarini yozib olish XX asrning 30 yillaridan boshlandi", degan fikr ilgari surilgan.

Shuningdek, Rossiyada chop etilgan "O'zbek milliy raqs san'ati: tiklanishdan yuksalish sari" («Uzbekskoye natsionalnoye tansevalnoye iskusstvo: ot stanovleniya k povisheniyu») kabi tadqiqotlarda raqs san'atining shakllanish bosqichlari va uning hozirgi holati bo'yicha tahlillar keltirilgan. Bu asarlar "Lazgi" fenomeni kabi aniq raqs turlarining tarkibiy xususiyatlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishga xizmat qiladi.

Maqolada Polshada chop etilgan "Xorazm Lazgisi haqida" nomli maqolaga murojaat qilingan bo'lib, unda "Garmon Lazgi" atrofida ijro uslublarining zamonaviy tahlillari keltirilgan. Bu maqola "Lazgi" raqsi tipologiyasining madaniyatlararo doirada qanday qabul qilinishi masalasiga oydinlik kiritadi.

Xoreograf Sh.To'xtasimov va H.Hamroyeva hammuallifligida tayyorlangan maqolada esa raqs san'atining ildizlari va badiiy tuzilishini ilmiy yondashuv asosida tahlil qilishga urinish qilingan. Bu asarlarda raqs san'atiga ko'pqirrali nazariy qarashlarning yuzaga kelishi ko'zga tashlanadi[4].

Bugungi kunda O'zbekiston xalq artisti, Xorazm raqs maktabining yetuk namoyandasi va targ'ibotchisi Gavhar Matyoqubova hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan monografiya hamda "Xorazm «Lazgi»si: tarixi va tavsifi" nomli lug'at-albom ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mazkur maqolada Amerika san'atshunosi Laurel Greyning ilmiy va amaliy faoliyatiga alohida urg'u berilgan. Uning O'zbekistondagi ijodiy izlanishlari, Amerikada o'zbek raqsini keng targ'ib qilish yo'lidagi xizmati, xalqaro seminar va festivallardagi ishtiroki nafaqat raqs san'atini, balki xalq diplomatiyasi nazariyasini boyitishga xizmat qilmoqda. Uning 1984-yilda asos solgan "O'zbek raqs va madaniyati jamiyati" va 1994-yildagi "Markaziy Osiyo raqslar lageri" orqali amalga

oshirgan faoliyati ilmiy hamkorlikning amaliy ifodasi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lazgi" xalqaro festivalini tashkil etish haqidagi qarorlari va ular asosida tashkil etilgan ilmiy-amaliy anjumanlar ham muhim manba sifatida ishlatilgan. Bu qarorlar milliy san'atni institutsional qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Maqolada foydalanilgan adabiyotlar va manbalar turfa sohalarini qamrab olib, "Lazgi" fenomeniga faqat san'atshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki tarixiy, madaniy, diplomatik va global kommunikativ nuqtayi nazardan yondashish imkonini yaratadi. Bu esa ushbu mavzuni interdisiplinar tadqiqot obyektiga aylantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda fanlararo tadqiqotlar yondashuvi asosida tarixiy, madaniy va siyosiy-ma'rifiy jarayonlar o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod – "Lazgi" raqsi san'atining tarixi, uning milliy va madaniy qadriyat sifatidagi shakllanish bosqichlari tahlil qilindi.

Kontent tahlil usuli – ommaviy axborot vositalaridagi (televizion dasturlar, gazetalar, veb-saytlar) "Lazgi" fenomeniga oid materiallar, shu jumladan, AQSH va boshqa xorijiy mamlakatlardagi taqdimot va festivallar haqidagi ma'lumotlar mazmun jihatidan o'rganildi.

Qiyosiy tahlil – O'zbekiston va boshqa davlatlar (xususan, AQSH) xalq diplomatiyasida milliy raqs san'ati, ayniqsa "Lazgi" raqsining tutgan o'rini, qabul qilinishi va targ'ib etilish shakllari taqqoslandi.

Maqsadli kuzatish – 2021-2025 yillar davomida O'zbekiston va chet davlatlarda o'tkazilgan "Lazgi"ga oid festivallar, balet spektakllari va madaniy tadbirlar dinamikasi kuzatildi va tahlil etildi.

Targ'ibot va ta'sir metodi tahlili – "Lazgi – muhabbat va qalb raqsi" baletining turli mamlakatlardagi namoyishlari orqali xalqaro jamoatchilikka estetik va madaniy ta'siri o'rganildi. Shu bilan birga, raqs orqali xalqlar o'rtasida madaniy muloqotni shakllantirishda uning diplomatik vosita sifatidagi samaradorligi baholandi.

Iqtibos va ilmiy manbalar tahlili – taniqli xoreograflar, san'atshunoslar, tadqiqotchilarning fikrlari, shu jumladan, Laurel Grey, Gavhar Matyoqubova va boshqalarning ilmiy izlanishlari va intervyulari tahlilga jalb etildi.

Ushbu usullar vositasida "Lazgi" raqsi nafaqat milliy estetik qadriyat sifatida, balki O'zbekiston xalq diplomatiyasining muhim madaniy-ramziy vositasi sifatida qaraldi. Shu orqali tadqiqotda estetika, siyosat, targ'ibot va jamoatchilik muloqoti kabi sohalarining kesishgan nuqtalaridagi jarayonlar yoritildi.

Tahlil va natijalar. Raqs – qalblarning musiqiy suhbat. Har bir xalqning milliy kuy va qo'shiqlari kabi raqsi ham uning tarixi, tilini ifoda etadi. Unda xalqning kundalik hayoti boshqacha aytganda etnografiyasi, etnopsixologiyasi namoyon bo'ladi. Bu go'zal harakatlarda yuksak ma'naviy mazmun, madaniyatni birlashtiruvchi milliy qadriyatlar hamohangdir. Mumtoz o'zbek raqsi maxsus raqs maktablarida uzoq asrlardan buyon rivojlanib kelayotgan san'at turi bo'lib, uning ko'rku tarovati butun dunyo bo'ylab katta sahnalarda namoyish etilmoqda.

Mumtoz o'zbek raqsining turlari ko'p biroq ular orasida Xorazmning qadimiy raqsi bo'lgan «Lazgi» raqsi alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos nodir san'at namunasi bo'lgan – "lazgi" 3 ming yillik tarixga ega. Undagi elementlar Avesto davrlariga borib taqaladi. Qadimgi shahar – Tuproqqal'a xarobalaridan musiqa asbobi chalalayotgan ayol haykalchasi topilgan bo'lib, olimlar bu terrakota miloddan taxminan ming yillar muqaddam yasalgan, degan xulosaga kelishgan[5].

So'nggi yillarda O'zbekistonda yangi O'zbekiston shiori ostidagi yangilanishlar san'atning ushbu nodir turinni yanada rivojlantirish va jahon arenalarga olib chiqishda yangi davrni boshlab berdi.

O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi «Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda «Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari madaniyat va san'at taraqqiyotida o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi. Ayni qarorlar asosida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida Madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi.

Ushbu akademiyada o'qitishning zamonaviy va ilg'or uslublardan keng foydalanish, o'quvchilar iqtidorini har tomonlama rivojlantirish ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni, madaniyat va san'at sohasida ilm-fan bo'yicha erishilgan ilg'or yutuqlarni tatbiq etish hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr qilish bugungi kunning muhim masalalari sanaladi. Bundan maqsad – raqs ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni to'la qamrab olish, yangi avlod darsliklari yaratishdan iborat[6].

Hozirgi globalashuv davrida mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat rasmiy diplomatik kanallar orqali, balki madaniy, ijtimoiy va fuqarolik tashabbuslari bilan ham boyitilmoqda. Xalq diplomatiyasi – aynan ana shu norasmiy, lekin ta'sirchan aloqalar mexanizmidir. O'zbekistonda xalq diplomatiyasi konsepsiyasi milliy madaniyat, san'at, urf-odat va an'analarni xalqaro miqyosda namoyon etish orqali mustahkamlanmoqda. Ushbu jarayonda «Lazgi» raqsi fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-sentabrda «Lazgi» xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi qarorida «Mamlakatimizning boy raqs san'ati tarixida alohida o'rin egallagan «Xorazm «Lazgi» raqsi» o'ziga xos ijro uslubi va jozibasi bilan nafaqat O'zbekistonda, balki chet davlatlarda ham mashhurdir[7]. YUNESKO tomonidan 2019-yilda «Xorazm «Lazgi» raqsi» insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga

O'zbekistonda o'zbek raqs san'ati bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadbirlar

	Tadbir nomi	Vaqt	Qisqacha ma'lumot
1.	O'zbekiston, Xiva III «Raqs sehri» xalqaro festivali[10]	2019-yil 14-16-sentyabr	Unda jahonning 20 davlatidan jami 110 nafar vakil ishtirok etgan. Ularning orasida san'atkorlardan tashqari olimlar, bloger va taniqli jurnalistlar ham bor. Jumladan, britaniyalik jurnalist-blogger, xalqaro raqs assotsiatsiyasi a'zosi Roza Verkoye, Italiya davlat televideniyesi bosh muharriri Konsuelo Jennari, Al Jazira telekanali boshlovchisi Muhammad Sifak bin Azman, Fransiyaning Overn viloyati press-klubi va jurnalistlar uyushmasi rahbari Sonia Reyn va boshqalar
2.	O'zbekiston, Xiva I «Lazgi» xalqaro raqs festivali	2022-yil 25-30-aprel	Unda dunyoning 30 ta davlatidan 175 nafardan ziyod raqs san'ati ustalari, professional raqs jamoalari, san'atshunos olimlar, madaniyat sohasining taniqli namoyandalari hamda OAV vakillari tashrif buyurgan. Festival doirasida o'tkazilgan tanlovda 18 davlatdan 160 ishtirokchi qatnashgan. Ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etish uchun 11 davlatdan 13 nafar san'atshunos olimlar Xiva shahriga yetib kelgan. Raqs ansambllari orasida Qirg'izistonning «Shattik» raqs ansambli, Turkiyaning «Inegol» xalq raqslari ansambli, Bolgariyaning «Pirin» raqs jamoasi, Tojikistonning «Zebo» ansambli, Serbiyaning «Sveti dordi» raqs jamoasi hamda Misrning «Tannura» raqs jamoasi bor[11].
3.	O'zbekiston, Xiva II «Lazgi» xalqaro raqs festivali	2024-yil 25-30-aprel	Unda dunyoning 33 davlatidan 200 dan ziyod iste'dodli raqqosalar, professional raqs jamoalari, raqs san'ati ustalari,

kiritilganligi ham uning betakror san'at ekanligidan dalolat beradi. Bu nafaqat raqsning, balki O'zbekiston madaniyatining dunyoviy tan olinishini anglatadi.

«Xorazm «Lazgi» raqsi» san'atining asriy an'analarini saqlash va rivojlantirish, raqs san'ati orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko'lamini va madaniy aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida 2020-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba Xiva shahrida 25 - 30 aprel kunlari «Lazgi» xalqaro raqs festivali va uning doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilib kelinmoqda.

Bu o'ziga xos xalq diplomatiyasi platformasi bo'lib, uning doirasida raqs san'atiga bag'ishlangan ko'rgazma pavilonlari, milliy cholg'u asboblari va liboslari, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, haykaltaroshlik namunalari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va video disklar, kitoblar, albomlar, fotosuratlar namoyishi hamda «Ichon qal'a» majmuasi hududida ularning savdosi tashkil etilib kelinmoqda.

Xalqaro raqs festivali doirasida «O'zbek milliy raqsining jahon raqs san'atidagi o'rni» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etilib, qator xorijiy mamlakatlardan san'atshunos olimlar, musiqashunoslar, raqs ustalari dunyoning boshqa biror xalqida o'xshashi yo'q «Lazgi» raqsi ijrosi borasida fikr-mulohazalarini bildirib kelmogda.

2022-yilda birinchi bor tashkil etilgan festivalda ishtirok etgan hindistonlik san'atshunos, professor Chandr SHeykxan o'zbek va hind raqsularining qadimiyligi, sho'x va o'ynoqi harakatlari bilan bir-biriga o'xshashligi, Xorazm raqsidagi janrlar juda jozibador va serharakatlilikini e'tirof etib o'tgan[8]. Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan artist Irina Minayeva ushbu raqs ijrosini dastlab internet orqali ko'rganini, festival doirasida «Lazgi» raqsini o'rganish umiddaligini bildirgan.

2024-yilda ikkinchi marotaba o'tkazilgan II «Lazgi» xalqaro raqs festivalining e'tiborli jihati shundaki xorijiy va mahalliy raqs san'ati ustalari, musiqashunos va san'atshunos olimlar, taniqli san'atkorlar va faxriy mehmonlar ishtirokida «Xorazm «Lazgi» raqsi: Madaniy diplomatiyani rivojlantirishning ilmiy – nazariy, ma'naviy – ma'rifiy tamoyillari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etildi[9].

			musiqashunos va san'atshunos olimlar, taniqli san'atkorlar, yetuk mutaxassislar, faxriy mehmonlar ishtirok etgan.
--	--	--	---


So'nggi yillarda "Lazgi" raqsi xalqaro raqs festivallari, balet sahnalari, konsert dasturlari va madaniy kunlar orqali dunyo sahnalarida namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekiston xalq diplomatiyasini rivojlantirishda "Lazgi – muhabbat va qalb raqsi" nomli balet spektaklining namoyishi katta voqeilik bo'ldi. 2021-yil 5-sentyabrda Alisher Navoiy nomidagi davlat Akademik katta teatrida ilk marta namoyish etilgan kundan 2025-yilning mart oyiga qadar 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlarda namoyish etilib, professional hamjamiyatning yuksak e'tirofi va bahosiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Mazkur asar Berlin milliy opera va balet maktabi bitiruvchisi, Dortmund teatri bosh baletmeysteri NRW

Juniorballet Dortmund rahbari, balet bosh xoreografi Raul Raymondo Rebek tomonidan sahnalashtirildi.

"Meni uzoq yillardan beri "Xorazm Lazgisi", uning o'tmishi, shakllanish jarayonlari juda qiziqtiradi. Undagi joziba va jo'shqinlikning go'zal uyg'unligi dunyoning boshqa bironra raqsida uchramaydi. Tarix – sirli, sehrli sandiq. Uni ochib, O'zbekistonning yangi qirrasini kashf qilganim, nurga chulg'angan xazinasidan bahramand bo'lganim men uchun juda katta tajriba maktabi bo'ldi. O'zimni uch ming yillik tarixni o'zida mujassam etgan ulkan maydonga tushib qolganday his qildim... Gavharxonim Matyoqubovanning maslahati bilan men avvalo Xorazm tarixini o'rgandim" – deydi Raul Raymondo Rebek[12].



(Ushbu xaritada "Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi" nomli balet spektakli namoyish etilgan dunyodagi 11 ta shahar keltirib o'tilgan.)

Muhabbat va qalb raqsi" birinchi marta Dubai Opera sahnasida namoyish etilgan va keyinchalik Istanbul, Moskva, Dortmund, London, Pekin va boshqa shaharlardagi taqdimoti O'zbekistonning madaniy imijini xalqaro maydonda mustahkamlashda xizmat qilmoqda. Shuningdek, "Lazgi" raqsi xorijdagi o'zbek diasporalari faoliyatida ham muhim madaniy unsurga aylangan. Ushbu san'at asari minglab xorijliklarni o'zbek san'atiga bo'lgan muhabbatini oshiribgina qolmay balki xorijdagi o'zbekistonlik vatandoshlarimizni ma'naviy birlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Asarning Istanbuldagi namoyishida ishtirok etgan o'zbek diasporasi vakili Cho'qay Ko'char "Bugungi lazgi konserti haqiqatan ham juda go'zal edi. Biz Turkiyada yashayotgan o'zbek

diasporasi vakillari chin dildan xursand bo'ldik. Istanbuldagi o'zbeklarimizning Ijtimoiy-madaniy hamjihatlik uyushmasi vakillari o'laroq biz bugungi tadbirda qatnashdik. Bugungi spektakl lazgining tarixiy xususiyatlarini namoyish qilish barobarida, zamonaviy san'at bilan uyg'un holatda taqdim etildi", deb fikr bildirgan edi.

Ushbu san'at asarining 2025-yil mart oyida Qozog'istonning Olmaotada shahridagi namoyishi esa Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik an'analariga sodiqlik, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va, albatta, madaniy sohalarida hamkorlikni kuchaytirishni ramzi o'laroq muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

"Lazgi – muhabbat va qalb raqsi" nomli balet spektaklining butun jahon bo'ylab namoyishlari

1.	O'zbekiston, Toshkent A. Navoiy Akademik katta teatri[13]	2021-yil 5-sentyabr	To'rt sahna ko'rinishidan iborat libretto. G'oya muallifi – Saida Mirziyoyeva, loyiha rahbari – Gayane Umerova, ssenografiya – Yoko Seyama qalamiga mansub, liboslar dizayneri – Frol Burimskiy, musiqiy bezak va kompozitsiya muallifi – Davidson Jakonello, maslahatchilar – Gavharxonim Matyoqubova, Gulnora Musayeva, teatr bosh baletmeysteri – Guli Hamroyeva.
2.	BAA, Dubaydagi Dubai Opera sahnasi	2021-yil 28-noyabr	Dubay shahrida bo'lib o'tgan "Expo-2020" doirasida birinchi marta xalqaro premerasi o'tkazilgan.
3.	Sankt-Peterburg IX Xalqaro madaniyat forumi doirasida	2021-yil	Keng jamotchilik ishtirok etgan.
4.	Turkiya, Istanbuldagi Otaturk madaniyat markazi[14]	2022-yil 21-iyun	"Lazgi – muhabbat va qalb raqsi" Turkiya ommaviy axborot vositalarining diqqat markazida bo'ldi. Jumladan, mamlakatdagi yetakchi Sabah, Hurriyet, Posta, Aydinlik kabi gazetalarda lazgi san'ati haqida ma'lumotlar berildi, Turkiyaning TRT kanallari festivalni keng yoritdi.
5.	Turkiya, Bursa shahridagi Merinos Otaturk sahnasi	2022-yil 28-29-iyun	Keng jamotchilik ishtirok etgan.
6.	Germaniya, Dortmund	2022-yil	Germaniya, Dortmund opera teatri[15]

	opera teatri[15]		
7.	Rossiya, Moskvadagi Rossiya Katta teatri	2023-yil 10-sentyabr	Keng jamotchilik ishtirok etgan.
8.	XXR, Pekindagi Xitoy milliy opera teatri sahnasi[16]	2024-yil 24-yanvar	Xitoy Xalq Respublikasida O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida taqdim etildi.
9.	Ozərbayjon, Bokudagi Azərbaycan davlat akademik musiqali teatri sahnasi	2024-yil 17-mart	«Choklardagi meros: O'zbekiston kashtachilik va tikuvchilik an'analari bo'ylab sayohat» ko'rgazmasi doirasida o'tkazilgan.
10.	Buyuk Britaniya, Londondagi Kolizey teatri	2024-yil 14-sentyabr	Ushbu tadbir spektaklning Britaniyadagi ilk namoyishi hisoblanadi.
11.	Qozog'iston, Olmaotadagi Abay teatri	2025-yil 17-mart	Keng jamotchilik ishtirok etgan.

Barchamizga ayon, Mukarrama Turg'unboyeva timsolida o'zbek raqs san'atining butun jilosi va jozibasi mujassam. U "Bahor" raqs ansamblini tashkil qilib, o'zbek raqslarining sahnaga olib chiqilishiga o'z hissasini qo'shgan. Aytib o'tish joiz, ansambl nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ham mashhur bo'lgan. Badiiy jamoa 30 yillik faoliyati davomida milliy raqs san'ati rivojida o'chmas iz qoldirdi. Biroq mustaqillikning ilk yillarida "Bahor"ning ijodiy faoliyati to'xtab qoldi.

Milliy raqs san'atida professional badiiy jamoalar faoliyatini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni izlab topish, ijodiy laboratoriyalarni tashkil etish, shu bilan birga, o'zbek raqs san'atining "oltin fondi"ni yaratish maqsadida Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" badiiy jamoasi qaytadan tashkil etilishi chin ma'noda o'zbek raqsiga bahorni qaytardi.

Ushbu san'at turi nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham O'zbekistonning madaniy diplomatiyasida muhim rol o'ynaydi. Xususan, AQSH bilan munosabatlarda mumtoz o'zbek raqs san'ati xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv, o'zaro hurmat va madaniy muloqotni mustahkamlash vositasiga aylangan.

AQSHda o'zbek raqs san'atining ishtiroqchilari ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu san'at turini AQSHda keng tarqalishida Munojot, «Tanovar», «Intizor», «Buxoro yulduzi» kabi va boshqa milliy raqlari ijrochisi, taniqli raqqosa va xoreograf, O'zbekiston xalq artisti Qizlarxon Do'stmuhammedova hamda xalqaro miqyosda taniqli olima, "Eng yaxshi xoreograf" (2003) va "Eng yaxshi etnik raqqosa" (1999) nominatsiyalari bo'yicha xalqaro mukofot sovrindori, "Silk Road Dance Company" raqs kompaniyasi rahbari amerikalik Laurel Grey xonimlarning sal kam yarim asrlik faoliyatini e'tirof etib o'tib joizdir.

L.Grey O'zbekistonda 20 ga yaqin marta bo'lgan, Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrining taklifiga binoan poytaxtimizda 2 yil istiqomat qilgan, raqs san'atiga bag'ishlangan turli teledasturlarda ishtirok etgan. Shuningdek, 2018-yil "Raqs sehri", 1997 – yil "Sharq taronalari", 1993-yil O'zbekiston qo'g'irchoq teatri festivallarida hakamlar hay'ati a'zosi bo'lgan. L.Grey elchixona bilan hamkorlikda madaniyatimiz, san'atimiz va an'alarimizni targ'ib qiluvchi turli tadbirlarni muntazam ravishda uyushtirib kelmoqda. Bundan tashqari, amerikalik olim 1984-yilda "O'zbek raqs va madaniyati jamiyati"ga, 1994-yilda esa "Markaziy Osiyo raqs lageri"ga asos solgan. 2021-yilda butun hayotini o'zbek milliy raqsi an'alarini o'rganish va O'zbekiston madaniyatini AQSHda keng ommalashtirishga bag'ishlagan taniqli xoreograf, professor L.Grey "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

L.Greyning ta'kidlashicha "raqsga tushishni o'rganayotganingizda siz nafaqat ayrim harakat yoki elementlarni o'zlashtirasiz, balki o'zingiz uchun yangi madaniyatni, odamlarning hayot tarzini va o'sha mamlakat an'alarini kashf etasiz. Bu borada O'zbekiston nihoyatda boy, rang-barang va betakror mamlakat", O'zbekiston raqs

san'ati va milliy xoreografiya elementlarida o'zbek xalqining turmush tarzi o'z ifodasini topgan.

O'tgan yillar davomida o'zbek raqs san'ati solnomasi AQSHda tashkil etilgan bir qancha yirik xalqaro tadbirlar bilan boyidi. Misol uchun, 2019-yilda AQSHda Q.Do'stmuhammedovanning uch kunlik trening dasturida an'anaviy o'zbek raqsi va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarining o'ziga xos xususiyatlari va elementlarini o'rgatish, shuningdek, turli sozlardagi mahorat darsi, xalqimizning tarixi va madaniyati bo'yicha seminar tashkil etilgan. O'zbekistonning Vashingtondagi elchixonasida bo'lib o'tgan tadbirda Kolumbiya okrugi, Merilend, Virjiniya, Pensilvaniya, Nyu-York, Nyu-Jersi, Florida, Kentukki va boshqa shtatlardan 20 ga yaqin tinglovchi ishtirok etgan[17].

2020-yilda Vashingtonda mamlakatimiz mustaqilligining 29 yilligi doirasida o'zbek raqs san'atini o'rganish bo'yicha ikki haftalik "Silk Road Dance Camp 2020" loyihasi tashkil etilib unda AQSHning 10 ta shtatidan jam bo'lgan raqs san'ati ixlosmandlari o'zbek raqsi tarixi bo'yicha qator ma'ruzalar, osh tayyorlash bo'yicha namoyish, Xorazm va Buxoro viloyatlari raqs mashg'ulotlari, O'zbekistonning tarixiy va madaniy xususiyatlari taqdimoti, Tamara xonimning memorial muzeyi va boshqa tadbirlarga virtual sayohat qilishdi[18].

Amerika jamoatchiligida o'zbek raqs san'atiga qiziqish shu darajada ortdiki buni isboti o'laroq 2021-yilda Mamlakatimizning AQSHdagi elchixonasida o'zbek milliy madaniyati va san'atini targ'ib qilish doirasida "Central Asian Dance Camp 2021" haftaligi tashkil etildi[19].

Haftalik doirasida o'zbek raqs afsonalari haqidagi film namoyishi, Xorazm va Farg'ona raqs maktablarining mumtoz harakatlarini o'rganish, O'zbekiston madaniyatiga bag'ishlangan kitob taqdimoti, palov pishirish bo'yicha mahorat maktabi, milliy kiyim va matolar, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari ko'rgazmasi o'tkazildi.

2025-yil 8-fevralda Vashingtondagi Kennedi Markazida "Uzbek Cultural Show" tadbiri bo'lib o'tdi. Unda "Friendship Nation Ensemble" jamoasi ishtirok etdi va o'zbek milliy raqlari, jumladan, "Lazgi" raqsini namoyish qildi. Bu tadbir AQSH jamoatchiligiga o'zbek madaniyatini yaqindan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etdi[20].

Jahon hamjamiyati, ayniqsa, G'arb dunyosi o'zbek raqlarini yangitdan kashf etmoqda, xorijlik madaniyat shinavandalari uchun ushbu san'at turi juda qiziqarli va jozibadordir. Bundan ko'rinib turibdiki, AQSHning turli hududlarida yashovchi insonlarning mamlakatimizda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan raqs san'atini o'rganishga bo'lgan ishtiroqi juda baland.

Xulosa va takliflar. "Lazgi" nafaqat o'zbeklarning, balki dunyo xalqlarining mehrini qozongan go'zal raqsiga emas, balki sirli musiqa, sehrlı so'zga vobasta muazzam asar sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning hayotbaxsh, jozibali kuchi, inson kayfiyati va ruhiyatini ko'targuvchi sehri haqiqiy mo'jiza ekanligiga ishonasiz.

U dunyo sahnalarini, turli tilda so'zlaguvchi odamlarni bir – biriga yaqinlashtiruvchi raqs ildizidan o'sib, ulkanlashib, Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessansining, ulug'vor Buyuk ipak yo'lining, Sharq G'arb tamaddunlari tutashgan tabarruk makonning raqsidagi suratiga aylanadi va yeru osmon oralig'ida charx uradi.

O'z navbatida, bunday madaniy diplomatiya xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik va aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi. Zero, o'zbek milliy san'ati, ayniqsa, raqsining insoniyatga estetik zavq, xushkayfiyat baxsh etish, mamlakatimizning go'zal madaniyatini jahonga yoyish, xalq diplomatiyasini rivojlantirishda ahamiyati beqiyosdir. Shunday ekan, dunyo san'ati tamaddunida o'z o'rnini va nufuzi bilan e'tirof etiluvchi "Lazgi", "Andijon polkasi", "Tanovar", "Dilxiroj" kabi o'zbek raqslari umrboqiydir[21]. "Lazgi" raqsi orqali xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv, hurmat, estetik bahramandlik va do'stlik munosabatlari shakllanmoqda. Mazkur san'at turi AQSH,

Turkiya, Xitoy, Germaniya va boshqa mamlakatlarda O'zbekistonning madaniy yuzini namoyon etmoqda. Laurel Grey kabi xorijlik olim va xoreograflar "Lazgi" raqsi orqali o'zbek madaniyatini o'z yurtlarida targ'ib qilmoqdalar. Elchixonalar, madaniy markazlar, festivallar va tadqiqotlar "Lazgi" orqali xalq diplomatiyasida madaniyat vositasini samarali qo'llash imkonini yaratmoqda. "Lazgi" raqsi nafaqat milliy san'at durdonasi, balki global kommunikatsiya vositasiga aylanib bormoqda. U orqali O'zbekiston xalq diplomatiyasida estetik ta'sir, madaniy hamkorlik va insonlar o'rtasidagi muloqot samaradorligi kuchaymoqda. Shunday ekan, ushbu fenomenni xalqaro maydonda yanada kengroq targ'ib etish, uni o'rganish va ilmiy asosda tahlil qilish lozim. Shu bilan birga, "Lazgi"ning elektron platformalarda targ'ibotini kuchaytirish, yoshlar o'rtasida interfaol ta'lim loyihalari tashkil etish va xalqaro raqs tahsil dasturlariga kiritish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Каримова Р. Ўзбек рақслари. – Тошкент: Фан, 1983. – 112 б.
2. Бобур Захи риддин М уҳаммад. Бобурнома Заҳириддин Муҳаммад Бобур; Таҳрир ҳайъати А.Қаюмон, Х.Султанов, Б. Алимов ва бошқ.; Халқаро Бобур фонди. – Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2008. - 288 б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 385–386.
4. Тўхтасимов Ш., Ҳамроева Ҳ. Голибо ул рақс анинг ихтиросидур... // «Санъат». – 2020. – №1. – Б. 24–30.
5. Лойдан яратилган одамзодга жон киритиш ифода этилган "Лазги" ёхуд Хивада ўтказилаётган халқаро рақс фестивали ҳақида / <https://oyina.uz/kiril/article/777>
6. Миллий рақс халқимизнинг энг мунаввар қадрияти / <https://yuz.uz/news/milliy-raqs-xalqimizning-eng-munavvar-qadriyati>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 28.09.2020 йилдаги ПҚ-4843-сон / Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори «Лазги» халқаро рақс фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида / <https://lex.uz/ru/docs/5020216>
8. Хоразмда "Лазги" ихлосмандлари жам бўлди / https://uza.uz/uz/posts/horazmda-lazgi-ixlosmandlari-zhamboldi_367751
9. Хивада II "Лазги" халқаро рақс фестивали ўтказилмоқда / <https://daryo.uz/k/2024/04/28/xivada-ii-lazgi-xalqaro-raqs-festivali-otkazilmoqda-foto>
10. Президентимизнинг 2020 йил 28 сентябрдаги "Лазги" халқаро рақс фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида"ги қарори ижроси доирасида 2022 йилдан бошлаб ҳар икки йилда бир маротаба Хива шаҳрида "Лазги" халқаро рақс фестивали ҳамда унинг доирасида халқаро илмий-амалий конференция ўтказиш белгиланган.
11. Хивада «Рақс фестивали» бошланмоқда, машхур блогерлар Хоразмга отланган / <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/xivada-raqs-festivali-boshlanmoqda>
12. Қалб ва муҳаббатнинг мангулик рақси / <https://yuz.uz/news/qalb-va-muhabbatning-mangulik-raqs>
13. Қалб ва муҳаббатнинг мангулик рақси / <https://yuz.uz/news/qalb-va-muhabbatning-mangulik-raqs>
14. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining rasmiy telegram sahifasi / t.me/acdfuz
15. Ўзбекистон Миллий балети Германияда намоиш этилади / <https://yuz.uz/news/ozbekiston-milliy-baleti-germaniyada-namoyish-etiladi>
16. Пекинда «Лазги. Муҳаббат ва қалб рақси» балет спектакли намоиши ўтказилди / <https://oyina.uz/kiril/posts/21131>
17. <https://qalampir.uz/news/ak-shda-uzbek-rak-s-san-atini-urganish-dasturi-tashkil-etildi-7287>
18. <https://yuz.uz/news/aqshda-ozbek-raqs-sanatini-katta-qiziqish-bilan-organishmoqda>
19. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/aqshda_uzbek_raqs_lari_tarixi_va_xoreografiyasi_haftaligi_boshlandi.html
20. Uzbek Cultural Show/ <https://www.kennedy-center.org/whats-on/millennium-stage/2025/february/uzbek-cultural-show/>
21. Миллат ва тил танламайдиган мўъжиза / https://uza.uz/uz/posts/millat-va-til-tanlamaydigan-mozhiza_286413